

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

2-2023

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

**G.M.Zokirova, I.I.Zokirov**

Ochiq urug'li o'simliklar (Pinóphyta) koleopterofaunasi (Coleoptera) ..... 105

**G.D.Mardanova, A.Sh.Xurramov**Surxondaryo tabiiy geografik hududida bezgak chivini *Anopheles superpictus* Grassi (1899) turining morfologik va molekulyar-genetik tavsifi ..... 110**Ch.F.Rahmonova**

Organizmda mikroelementlar tanqisligi va uning oldini olish yo'llari ..... 118

**A.E.Normatov, G.J.Baxtiyorova, D.I.Po'latova, M.Yuldasheva**

Farg'ona neftni qayta ishlash zavodi oqava suvlari suv o'simliklari yordamida tozalashga oid tadqiqotlarni tahlili ..... 125

---

GEOGRAFIYA**K.M.Boymirzayev, H.N.Naimov, D.X.Jo'raqulova**

Landshaftlar strukturasi va ularning zamонавиј antropogen jarayonlar ta'sirida o'zgarishi ..... 129

**A.A.Isayev, A.R.Arabboev**

7-sinf materalar va okeanlar tabiiy geografiysi fanidan amaliy darslarda interfaol usullardan foydalanish ..... 133

**J.J.Mamatisakov**

O'quvchilarga geologik bilimlar berishda tabiiy geografiya ta'lif vositalarining o'rni va ahamiyati ..... 135

**Y.I.Ahmadaliyev, A.E.Madraximov**

Geografik nomlarning ekologik funksiyalarini tadqiq etish usullari ..... 138

**N.X.Karimov**

O'quv dala amaliyotida poxodlarni tashkil etishda gigiyenik qoidalarga amal qilish tartibi ..... 142

---

ILMIY AXBOROT**M.X.Akbarova, Z.N.Jo'rayev**"Yozyovon cho'llari" davlat tabiat yodgorligida tarqalgan *Cistanche mongolica* Beck ning bioekologik xususiyatlari ..... 147**M.T.Qarshiyev, A.Y.Ruzikulov, F.N.Nurkulov**

Biomodifikatorlar bilan polietilenni modifikatsiyalash hamda ularning xossalari tahlili ..... 151

**A.E.Normatov, I.A.Usmonov, D.I.Po'latova, M.Yuldasheva**

Neft va neft mahsulotlari bilan ifloslangan oqava suvlarni yuksak suv o'simliklari yordamida tozalash ..... 155

**A.M.Mamasidiqov, A.A.Umarov**

Sotsiologiya fanining ijtimoiy fanlar tizimidagi o'rni ..... 159

**B.A.Umarov**

Raqamli texnologiyalar asosida pedagoglarning professional kompetentligini rivojlantirishning pedagogik modeli ..... 163

**Z.A.Akbarova, N.Mamasoliyeva, S.Haydaraliyeva**

"Inson" tushunchasi mazmunining lisoniy tahlili ..... 168

**B.Q.Baratov**

Bo'lajak o'qituvchilarni uzliksiz ma'naviy tarbiya jarayoniga tayyorlashning ijtimoiy-pedagogik zarurati ..... 172

**A.N.Qosimov**

Milliy identiklik tarbiyasi – ijtimoiy ehtiyoj va pedagogik muammo sifatida ..... 179

**J.A.Qurbanov**

Integratsion ta'limi asosida bo'lajak o'qituvchilarning intellektual madaniyatini rivojlantirishning interfaol metodlari ..... 184

**J.V.Solijonov**

Fanlararo hamkorlik vositasida bo'lajak pedagoglarda mantiqiy tafakkurni rivojlantirishning psixologik va pedagogik jihatlari ..... 190

**G.Z.Ganiyeva**

Ingliz tilidagi toponimlarni izohlashda leksikografik tamoyillar (Buyuk Britaniya va Amerika joy nomlari lug'atlari misoldida) ..... 194

**RAQAMLI TEKNOLOGIYALAR ASOSIDA PEDAGOGLARNING PROFESSIONAL KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK MODELI**

**PEDAGOGICAL MODEL FOR THE DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL COMPETENCE OF TEACHERS BASED ON DIGITAL TECHNOLOGIES**

**ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ МОДЕЛЬ РАЗВИТИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ ПЕДАГОГОВ НА ОСНОВЕ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ**

Umarov Bekzod Azizovich<sup>1</sup>

<sup>1</sup>Umarov Bekzod Azizovich

– Farg'ona davlat universiteti, amaliy matematika va informatika kafedrasи o'qituvchisi

**Annotatsiya**

*Ushbu maqola pedagoglarning professional kompetentligini rivojlanirishda raqamli texnologiyalar imkoniyatlaridan unumli foydalanish, ta'limga raqamlashtirish asosida ta'limga sifatiga ijtimoiy ta'sir ko'rsatish, korruption munosabatlarni oldini olishda inson omilini yo'qotishga qaratilgan pedagogik faoliyatni yo'lda qo'yishning ijtimoiy ahamiyati tadqiq etilgan.*

**Аннотация**

В данной статье рассматривается социальная значимость налаживания педагогической деятельности, направленной на эффективное использование возможностей цифровых технологий в развитии профессиональной компетентности педагогов, положительно влияющих на качество образования в условиях цифровизации образования, устранение человеческого фактора. фактор предотвращения коррупционных отношений.

**Abstract**

*This article discusses the social significance of establishing pedagogical activities aimed at the effective use of the possibilities of digital technologies in the development of professional competence of teachers, which positively affect the quality of education in the context of digitalization of education, eliminating the human factor. factor in preventing corruption.*

**Kalit so'zlar:** Raqamli texnologiyalar, Kompetensiya, Pedagogik jarayon, Ta'lim jarayoni, Innovatsiya, Professional, Kompetensiya, Kompetentlik, Professional kompetent, Integrallash, Interfaol, Pedagogik, kommunikatsiya, Innitsiativ, Individual.

**Ключевые слова:** Цифровые технологии, Компетентность, Педагогический процесс, Образовательный процесс, Инновация, Профессиональная, Компетентность, Компетентность, Профессионально-компетентная, Интеграция, Интерактивная, Педагогическая, коммуникативная, Инициативная, Индивидуальная.

**Key words:** Digital technology, Competence, Pedagogical process, Educational process, Innovation, Professional, Competence, Competence, Professional-competent, Integration, Interactive, Pedagogical, Communicative, Initiative, Individual.

Bugungi kunda pedagoglarning professional kompetentligini rivojlanirish kadrlar tayyorlash tizimi oldidagi dolzarb muammolardan biri bo'lib qolmoqda. Chunki zamonaviy pedagog shaxsiyatida kasbiy va ijtimoiy bilim va ko'nikmalar, kompetensiyalar shakllangan bo'lishi talab etilmoqda. Buning uchun pedagoglardan zamonaviy talablarga javob beradigan, mustaqil fikrlaydigan, intellektual salohiyat, chuqur bilim va ilmiy dunyoqarash, puxta metodik tayyorgarlikka ega shaxs bo'lish talab etiladi. Shu bois ham bugun ta'limga turlari va xususiyatlaridan kelib chiqqan holda uni raqamlashtirish, raqamli texnologiyalardan foydalanish aosisda pedagogik jarayon sifati va samaradorligini oshirish ustuvor vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

Mamlakatimizda yangilangan, jahon andozalariga hamohang ta'lim mazmunini joriy qilish o'z-o'zidan emas, balki ko'p mingli pedagoglar bilimi, tajribasi va olimlarning ijodiy faoliyati orqali amalga oshadi. Tezkor axborot va texnikaviy taraqqiyot shiddat bilan rivojlanayotgan vaqtida muntazam yangilanayotgan zamonaviy texnologiyalar hamda axborot oqimida pedagoglarning bilimlari 2-3 yilda eskirib, ularning o'rniqa yanada takomillashtirish texnologiyalar egallashi davrning xarakterli xususiyatiga aylandi. Bunday sharoitda taraqqiyotimizning hamda aholi farovonligini yuksaltirishning muhim omili bo'lmish kadrlarning umumiylashtirishini mamlakat taraqqiyoti va ko'p mingli pedagoglarning har biri uchun dolzarb muammo hisoblanadi.

Pedagoglarning professional kompetentligi uning kognitivligi, hayotiy tajribani mustaqil ravishda muntazam oshirib borish, o'z xatti-harakatini muqobil baholash va mustaqil qaror qabul qila olish ko'nikmalarini rivojlantirish bilan bir qatorda faoliyatning maqsadli va tizimli rivojlanishiga turki bo'ladi

Bugungi kunda ta'lif islohoti yangicha fikrlovchi, globallashuv jarayonida axborot oqimida to'g'ri yo'l topa oladigan, axborotlardan unumli, yosh avlod ta'lif-tarbiysi, kasb-hunar o'rganishida foydalana oladigan, izlanuvchan, ijodkor pedagogni shakllantirish vazifasini ko'ndalang qilib qo'ydi. Bu ishning muhimligi shundaki, pedagogik tajriba ta'lif mazmuniga qanchalik yangilik kiritmasin, qanchalik mukammal dasturlar, darsliklar va ta'lif standartlari yaratilmasin, ularni o'quv-tarbiya jarayoniga joriy qilish o'qituvchi shaxsi va pedagogik mahoratiga bog'liq ekanligini ko'rsatmoqda.

Pedagoglarni integrallashgan metodik faoliyatga tayyorlashda ularning umummadaniy salohiyati, mutaxassislik bilimlari hamda shaxsiy fazilatlari shakllanishida uyg'unlikka erishish taqozo qilinadi. Shu bois o'quv rejalarida ko'zda tutilgan barcha bilimlarga oid fanlarning integratsiyalashuv zarurati yuzaga keladi. Demak, integrallashgan metodik faoliyatni o'qitishda fanlararo aloqalarni mustahkamlashga asoslanadi. Talabalarning fanlarni o'zlashtirishida mustaqil fikrashi, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish maqsadida yangi pedagogik texnologiyalar, o'qitishning interfaol usullaridan foydalanishning ahamiyati kattadir. Binobarin, shaxsga yo'naltirilgan ta'lif hamkorlik pedagogikasi, kichik guruhlarda ishlash usullari ta'sirida yaxshi samara berishi mumkin. Ta'lif texnologiyalari samaradorligini yanada oshirishda zamonaviy axborot kommunikatsiyalarini keng joriy etish yaxshi natija beradi.

Bugungi kunda haqiqiy kognitiv tizimlarni yaratish uchun raqamli texnologiyalari va qurilmalarning o'ziga xos xususiyalarga ega bo'lishining o'zi yetarli emas edi. O'qitish metodikasi va texnologiyalariga keng ko'lamli ravishda kirib kelgan bunday texnologiyalarning eng asosiy kamiligi ular tomonidan bajariladigan intellektual amallarning oldindan ishlab chiqilgan dastur doirasi bilan cheklanganligi, ijodiy fikrni mustaqil ravishda asoslash, uni pirovard ijobiy natijaga mustaqil ravishda yo'naltirish imkoniyatining yo'qligi edi. Shu bois raqamli texnologiyalar va vositalarini qo'llashdan erishilgan natjalarga uzil-kesil baho berish ulardan ijodiy pedagogik jarayonda foydalanish yoki foydalanmaslik yuzasidan qaror qabul qilish ijodkor pedagogning o'ziga havola qilinadi. Albatta, innovatsion pedagogik jarayonda bunday masalalarni o'qituvchining o'zi tomonidan hal qilinishi, ularni aqli mashinalarning zimmasiga to'liq yuklab qo'yishni imkoniyati yo'q. Shu bilan bir qatorda yangilikni yaratish va aqliy salohiyatdan mustaqil foydalanish orqali ijodiy vazifalarning bir qismini kognitiv layoqatga ega bo'lgan kompyuter texnikasidan va texnologiyalardan foydalanishni yo'nga qo'yish zarurati yuzaga kelgan.

Pedagoglarning professional kompetentligini rivojlantirishda ulardagi "Ta'lilda raqamli texnologiyalar"ni rivojlantirish va bu orqali pedagogik va raqamli texnologiyalar integratsyaisini ta'minlash hamda mavjud axborot manbalaridan (internet, televizor, radio (audio-video yozuv), telefon, kompyuter, elektron pochta va boshq.) foydalana olish; media vositalardan zarur bo'lgan axborotlarni izlab topa olish, saralash, qayta ishslash, uzatish, saqlash, xavfsizligini ta'minlash va foydalanishda mediamadaniyatga rioya qilish; ma'lumotlar bazasini yarata olish, asosiyalarini tanlay olish va ularni tahlil qila bilish; kundalik faoliyatda uchraydigan hujjatlar bilan ishlay olish kompetensiyalari ta'lif muassasasidagi axborotlashgan muhit ta'lif jarayoni samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Bugungi kunda uzlusiz ta'lif jarayonida qo'llanilayotgan "Aqliy hujum", "Har kim har kimga o'rgatadi", "Kichik guruhlarda ishslash", "Bilaman. Bilishni xohlayman. Bilib oldim", "Klaster", "Qarorlar shajarasи" singari metodlarning ayrimlaridan mustaqil ijodiy ta'lif jarayonidagi foydalanish mumkin. Aslini olganda, bu metodlarning ta'limdiyi mantiqiy metodlardan farqi uncha katta emas.

Interfaol metodlar o'quvchi-o'qituvchidan ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarflamay, qisqa vaqt ichida yuksak natjalarga erishish maqsadini nazarda tutadi. Qisqa vaqt mobaynidagi ma'lum nazariy bilimlarni o'quvchiga yetkazish, unda ma'lum faoliyat yuzasidan ko'nikma, malaka hosil qilish, shu bilan birga ularni nazorat qilish hamda baholash o'qituvchidan yuksak pedagogik mahorat va chaqqonlikni talab qiladi.

Pedagogning metodik tayyorgarligida mustaqil ta'lifni va mustaqil ishni to'g'ri tashkil etish muhim o'rinni egallaydi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, mustaqil ishlar deganda, shunday o'quv faoliyatini tushuniladiki, unda bilimlar egallanishi bilan birga, ko'nikmalarni shakllantirish ham mustaqil tashkil etilishi ta'minlanadi. Demak, bo'lajak o'qituvchining pedagogik mahoratini to'g'ri tashkil etilgan va aniq maqsadga qaratilgan mustaqil ish tashkil etadi.

Mustaqil ish – o'qituvchining topshirig'i va uning rahbarligida o'quv vazifasini hal etadigan ta'larning faol metodi bo'lib, bu qo'yilgan maqsad bilan bog'liqlikda o'quvchilarning aniq faoliyatini tashkil etish va amalga oshirishdir. O'quvchilarning mustaqil ishlari ularning yuqori darajadagi faoliik, ijodiylik, mustaqil tahlil, tashabbuskorlikka asoslangan faoliyatlaridir. Boshqa bir ta'rifga ko'ra, mustaqil ish – bilim olish shakllaridan biri bo'lib, bunda o'quvchilar o'z oldilariga u yoki bu vazifalarni, maqsadlarni ongli ravishda qo'yib, faoliyatni rejalashtiradi va uni amalga oshiradi hamda o'z-o'zini baholaydi.

Raqamli texnologiyalariga asoslangan mustaqil ish bir qancha o'ziga xos xususiyatlariga ega: ta'larning faol (aktiv) metodi sifatida mustaqil ishning o'ziga xosligi uning asosini o'quvchi o'qituvchining yordamisiz bajaradigan harakatlar tashkil etadi, u mazkur harakatlarni bajarish usullarini o'zi tanlaydi, ko'plab amallarni takomillashtiradi, qo'yilgan maqsad bilan bog'liqlikda ularni nazorat qiladi; mustaqil ishlarning ikkinchi o'ziga xosligi o'quvchi faoliyatining boshqarish shakli hisoblangan o'z-o'zini nazorat qilishda aks etadi; uchinchi o'ziga xoslik o'z-o'zini nazorat qilish bilan mustahkam bog'liq bo'lgan, o'z-o'zini boshqarishda muhim rol o'ynaydigan baholovchi faoliyatdir; mustaqil ish har doim qandaydir natija bilan tugallanadi. Bu mashq bajarish, vazifalarni hal etish, insho yozish, jadval to'ldirish, grafiklar hosil qilish, savollarga javob berishga tayyorlanish kabi shakllarda namoyon bo'ladi. Bo'lajak o'qituvchi o'zining kelajakdagagi pedagogik faoliyatida samarali pedagogik texnologiya sifatida undan foydalanish hamda uni axborot texnologiyalari bilan integratsiyalay bilishi ham ta'lim sifatiga kuchli ta'sir ko'rsatadi.

Zamonaviy sharoitda o'quvchilarning mustaqil ishlarni tashkil etishda yangi raqamli texnologiyalaridan foydalanish maqsadga muvofiq: tarmoqdan axborot izlash – web-brauzer, ma'lumotlar bazasidan foydalanish, axborot-qidiruv, axborot-ma'lumotnomalar tizimlari, avtomatlashgan kutubxona tizimlari, elektron jurnallardan foydalanish; axborot izlash va unga ishlov berishga doir mustaqil ishlarga quyidagilar kiradi: referat-sharhlar yozish; mavzu bilan bog'liq saytlarga taqriz yozish; ma'lum mavzuga doir tarmoqdagagi mavjud referatlarni tahlil etish, ularni baholash; ma'ruza rejasiga doir o'z variantini yoki uning ma'lum bir qismini yozish; foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatini tuzish; amaliy mashg'ulotlardan lavha tayyorlash; mavzuga doir munozara o'tkazish; o'qituvchi tomonidan tayyorlangan yoki tarmoqdan topilgan web-kvestda ishlash; tarmoqda dialogni amalga oshirish – elektron pochta, sinxron telekonferensiyalardan foydalanish. Tarmoqda dialogni amalga oshirishni quyidagicha ko'rinishda tashkil etish mumkin: o'tkazilgan yoki o'tkazilishi ko'zda tutilgan ma'ruzalarni muhokama qilish; mutaxassis yoki o'quvchilar bilan sinxron telekonferensiya(chat)da muloqotni amalga oshirish; tematik web-sahifa, web-kvest(topshiriq)lar yaratish – html-muharriri, web-brauzer, grafik muharrirlardan foydalanish. Tematik web-sahifa, web-kvest (topshiriq)lar yaratishda quyidagi usullardan foydalanish mumkin: saytda o'quvchilar tomonidan bajarilgan referatlar va retsenziyalar, ishlarni joylashtirish; mavzuga doir adabiyotlar ro'yxatini chop etish; individuall va kichik guruhlarda ishlashga doir mavzuli web-sahifalarni yaratish; mavzu bo'yicha ishslash uchun web-kvestlar yaratish va ularni kursga doir saytda joylashtirish.

Pedagoglarning professional kompetentligini rivojlantirish va ularning pedagogik faoliyatini samaradorligida interfaol metodlarning o'rni yuqori hisoblanadi. O'quvchilarda voqelikni tahlil etishga analistik va muqobil yondashuvni qaror toptirishda vaziyatli tahlil (keys-stadi) strategiyasidan foydalanish maqsadga muvofiq. Keys-stadi inglizcha sase – aniq vaziyat, study – ta'lim co'zlarining birikuvidan hosil qilingan bo'lib, aniq vaziyatlarni o'rganish, tahlil etish va ijtimoiy ahamiyatga ega natijalarga erishishga asoslangan ta'lim metodidir. Mazkur strategiya muammoli ta'lim metodidan farqli ravishda real vaziyatlarni o'rganish asosida aniq qarorlar qabul qilishga asoslanadi.

Keys-stadining asosiy kategoriyasi bu «tahlil etish (analiz)»dir. Tahlil etish kategoriyasi obyektni xayolan bo'laklarga bo'lish yoki ilmiy tadqiq etish sifatida tushunilishi mumkin. Analizning turli tasniflari mavjud bo'lib ommaviy analiz tasnifini quyidagicha belgilash mumkin: tizimli analiz, korrelyatsion analiz, faktorli analiz, statistik analiz va boshqalar. Analizning ushbu barcha turlari keys-stadi metodi doirasida qo'llanilishi mumkin bo'lib, mazkur holat metodning imkoniyatlarini yanada kengaytiradi1. Keys-stadida vaziyatni anglash, tafakkur qilish jarayonida amalga oshishi mumkin bo'lgan bir qator analistik faoliyat turlari ishtiroy etishi mumkin.

Taqdim etish shakliga ko'ra bosma, multimedia va video keyslar farqlanadi. Bosma keyslar nafaqat matn, uni yanada ko'rgazmali bo'lishini ta'minlaydigan grafik, jadval, diagramma, illyustratsiyalarni o'z ham o'z ichiga oladi. Multimedia keyslar audivizuallik tavsifiga ega bo'lib, animatsiyalar orqali ta'sir ko'lami ortadi. Video keyslar video, telefilmlar asosida taqdim etiladi.

Shuningdek, o'quvchilarning mustaqil o'quv faoliyatini tashkil etishda ta'limgardan loyihiyviy strategiyasini qo'llash talab etiladi. O'quv loyihasi – bu o'rganilgan mavzu yoki bo'limni yanada, chuqurroq o'rganishga yo'naltirilgan, ta'limgardan jarayoniga tajriba, faoliyat asosida yondashuvga imkon beruvchi, tadqiqotchilik va izlanishga doir metodlardan foydalanishni talab etuvchi ta'limgardan tashkil etish shakli.

Loyiha (design) – ba'zi murakkab ishlanmalarni yaratish bo'yicha hujjatlar yig'indisi. Loyiha (project) tushunchasi kengroq ma'noda ma'lum natija (loyihaning beqiyos mahsuli)ga ega maqsadli faoliyatni tashkil etish uchun biror-bir tashkiliy shaklni belgilash uchun foydalaniladi. Demak, loyihalashtirish – real natijaga olib keluvchi, qat'iy tartibga solingan harakatlar izchilligini o'z ichiga oluvchi muammoni o'zgartiruvchi faoliyatni anglatadi. Ta'limiya tavsifdagi loyihalashtirish o'qituvchi tomonidan o'quvchining muammoni izlash, uni hal etish bo'yicha faoliyatini rejalashtirish va tashkil etishdan to (intellektual yoki moddiy mahsulotni) ommaviy baholash uchun uni hal etish usulini taqdim etishgacha mustaqil harakat qilishini ta'minlovchi maxsus tashkil etilgan maqsadli o'quv faoliyatidir.

«O'quv loyihasi» tushunchasi keng qamrovga ega bo'lib, quyidagi mazmunga ega: muayyan iste'molchiga mo'ljallangan, muammolarni izlash, tadqiqot qilish va yechish, natijani noyob (moddiy yoki intellektual) mahsulot ko'rinishida rasmiylashtirishga qaratilgan o'quvchilarning mustaqil o'quv faoliyatini tashkil qilish usuli; nazariy bilimlar orqali amaliy vazifalarni yechishga qaratilgan o'quv vositalari va qurollari; rivojlantiruvchi, ta'limgardan jarayoni ishtirokchilarida o'z-o'ziga ishonchni qaror toptirish, egallangan bilimlarni amaliyotda qo'llay olishga erishish; qo'liga kiritiladigan natija uchun o'quvchilarda jamoa bo'lib ishslash, ijodiy topshiriqlarni bajarish jarayonida birgalikda hamkorlikdagi faoliyatga doir ko'nikma va malakalarni rivojlantirish.

O'quv loyihasini ishlab chiqish bosqichlari: tayyorgarlik (motivatsiya, muammoli vaziyatlarni aniqlash, mavzuni tanlash, loyihaning maqsadini belgilash); loyihalashga doir (umumiyoj rejani ishlab chiqish, faoliyatni amalga oshirishning aniq rejasini tuzish, tanlab olingan nuqtai nazar bilan bog'liqlikda topshiriqlarni o'quvchilar o'rtasida taqsimlash, mustaqil ish, guruhlarda ishslash, «aqliy hujum», praktikum va boshqalar); amaliy (muammoni tadqiq etish, ma'lumotlarni to'plash va qayta ishslash, natija olish, natijalarni sinovdan o'tkazish, natijalarni grafik ko'rinishida taqdim etish, hujjatlarni rasmiylashtirish); anali-tik (rejalashtirilgan ishlar va olingan natijalarni taqqoslash, umumlashtirish va xulosalash); nazorat va baholashga doir (muvaffaqiyatlarni va yo'l qo'yilgan xatolarni tahlil etish, xatolarni to'g'rilash yo'llarini izlash, real holat bilan bog'liqlikda loyiha o'zgartirishlar kiritish); yakuniy (ish mazmuni bilan tanishtirish, xulosalarni asoslash, loyiha himoyasi).

Hozirgi vaqtida ta'limgardan amaliyotida o'quv loyihasining xilma-xil turlaridan foydalaniladi: yetakchi faoliyat turiga ko'ra: tadqiqot, amaliy yo'naltirilgan va axborotli; fanga yo'naltirilganligiga ko'ra: monoloyiha va fanlararo loyiha; davomiyligiga ko'ra: o'zoq muddatli, o'rtalik muddatli, qisqa muddatli; loyiha ishtirokchilarining soniga ko'ra: individual va guruhli1. Shuningdek, ta'limgardan maqsadi bilan bog'liqlikda ham o'quv loyihasini turlarga ajratish mumkin: axboriy, tadqiqotchilikka doir, amaliy-yo'naltirilgan, ijodiy, o'yinli yoki rolli. Masalan, agar o'qituvchi o'quvchida axborotlar bilan ishslash malakalarini, matnni tahlil etish, turli manbalardagi ma'lumotlarni tasniflash va tekshirish ko'nikmalarini rivojlantirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ysa, u holda axboriy tavsifdagi o'quv loyihasidan foydalanishi maqsadga muvofiq. Axboriy tavsifdagi loyihaning maqsadi aynan ma'lumotlarni to'plash, axborotlarni rasmiylashtirish va taqdim etishdan iborat. Albatta, o'quv loyihasining istalgan turida axborot to'plash bosqichi bor, biroq bu yerda u o'quv ishi vositasi bo'lib xizmat qiladi, axboriy tavsifdagi loyiha esa, asosiy maqsad sifatida belgilanadi. Mazkur holatda o'quvchi faoliyatini aynan axborotlar bilan ishslashga yo'naltiriladi. Shu bilan birgalikda o'quvchida axboriy kompetentlikni rivojlantirish asosiy vazifa sifatida belgilanadi.

Ma'lum bir fan yoki fanlarga doir amaliy ko'nikma va malakalarni rivojlantirish zaruriyati paydo bo'lganda, amaliy yo'naltirilgan loyihalardan foydalanish yaxshi samara beradi. Eng oddiy holatda, o'qituvchi o'quvchilardan fanga doir tarqatma materiallarni yoki o'yinlar ssenariysi, glossariyi, tarixiy atlaslar yaratish topshirig'ini buyurishi mumkin. Amaliy yo'naltirilgan loyihalarni bilan ishslash jarayonida o'quvchilarda nafaqat fanga doir bilim, ko'nikma va malakalar rivojlanibgina qolmay, balki faoliyatga doir kompetentlik ham qaror topadi. O'quv loyihasini amalga oshirishda bir qator shakli va metodlarga tayaniлади. O'quv loyihasini tashkil etishning turli bosqichlarida bir biridan farq

qiluvchi metodlarga murajaat etishga to'g'ri keladi. Bu jarayonda o'qituvchi va o'quvchilarning faoliyatlari ham bir biridan farqlanadi.

Xulosa qilganda, bo'lajak o'qituvchilarning metodik tayyorgarligini oshirishda ta'limni tashkil etishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan metodlar va usullarning xususiyatlari, qo'llash joiz bo'lgan xolatlar to'g'risidagi nazariy bilimlarini oshirish, ularning pedagogik mahoratini oshirish va texnik tayyorgarligini takomillashtirishda axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan o'z ornida foydalana olish ko'nikmalarini shakllantirish kerak bo'ladi.

#### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Kayumova N. A. Oliy ta'lim tizimida bo'lajak informatika o'qituvchilarini tayyorlashning metodik tizimini takomillashtirish / Zamonaviy ta'lim jurnali. 2019. № (85) –B. 28-29.
2. Azizzodjayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – T.: "Fan va texnologiyalar" nashriyoti, 2006. –B. 20.
3. Ситуационный анализ или Анатомия кейс-метода. / Под. ред. Сурмина Ю.П. – Киев: Центр инноваций и развития, 2002. – С. 52.
4. Бухаркина М.Ю. Разработка учебного проекта. – Москва, 2003.– С.56.
5. Шапиро В.Д. и др. Управление проектами. – СПб.: «Два Три», 2000. – С. 62.
6. Полат Е.С. Метод проектов. – Москва.: Наука. 2001. –С. 96.
7. Egamberdiyeva N.M. Madaniy-insonparvarlik yondashuv asosida talabalarni shaxsiy ham kasbiy ijtimoiylashtirish nazariyasi va amaliyoti. Avtoreferat. Toshkent.: 2010.-B.17.
8. Xaydarov F.I. Muslimov N. Pedagogik kadrlar tayyorlash istiqboli. Pedagogik ta'lim. Toshkent.: 6-sod 2009. – B. 8-9.
9. Umarov B. A. KORXONA VA TASHKILOTLAR BOSHQARUVINING MODELLASHTIRISHDA AVTOMATLASHTIRILGAN AXBOROT TIZIMLARNING O'RNI //Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS). – 2022. – T. 2. – №. Special Issue 2. – C. 117-122.
10. Rasulov, R. Y., Akhmedov, B. B., Muminov, I. A., & Umarov, B. B. (2021). Crystals with tetrahedral and hexagonal lattices. *Fergana. Classic.*-2021.
11. Umarov Bekzod Azizovich: Umarova Munojat Ibragimovna. The problem of approximating signals based on modeling of wavelet - haar transformation. EPRA International Journal of Multidisciplinary Research SJIF Impact Factor :7.032 ISI I.F. Value : 1.188 DOI : 10.36713/epra2013 ISSN (Online) : 2455 - 3662 Monthly Peer Reviewed & Indexed International Online Journal.
12. Умаров Ш. Выражение вторичных многочленов спектральными коэффициентами //Engineering problems and innovations. – 2023. – Т. 1. – №. 1. – С. 20-26.
13. Umarov S. A. Research on General Mathematical Characteristics of Boolean Functions' Models and Their Logical Operations and Table Replacement in Cryptographic Transformations //Journal of Optoelectronics Laser. – 2022. – Т. 41. – №. 10. – С. 126-133.
14. Umarov Bekzod Azizovich. RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA PEDAGOGLARNING PROFESSIONAL KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI